

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MUSTAQILLIK YILLARIDA SUD HOKIMIYATI

Bahronov Jafar

Andijon davlat universiteti tarix fakulteti

3 bosqich 303 guruh Talabasi

ANNATATSIYA

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda sud tizimida amalga oshirilayotgan bir qator muhim islohotlar shu jumladan sud-huquq tizimidagi yangiliklar va Sud – zimmasiga davlat hokimiyatining bo'g'inlaridan biri – Sud hokimiyatini amalga oshirish yuklangan organ ekanligi haqida so'z yuritiladi. Mustaqillik yillarida Sud hokimiyati hayajonligi, qonun yo'lida mamlakatning qonunchilikni muhofaza qilishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu, adliya tizimi, sud organlarining mustaqil ishlashi va qonunni barcha davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolar oldida barqaror tarzda amalga oshirilishi demakdir. Bu jarayon o'zida demokratik jamiyatning boshqa tizimlariga ta'sir ko'rsatadi, chunki har bir shaxs o'zining huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

KALIT SO'ZLAR: Sud hokimiyati, demokratik islohotlar, huquqiy, demokratik, siyosiy-huquqiy tahlil

KIRISH

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishi bilan sud-huquq tizimini isloh qilish borasida bir qator vazifalar belgilab olindi. Konstitutsiyada belgilab berilgan hokimiyatlar bog'linishi tamoyili biriktirildi. Sudlarning faoliyatini qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolat, fuqarolarning tinchligi va o'zaro totuvligini ta'minlashga qaratish ko'zda tutilgandi. Sud hokimiyatining tuzilishi asosi O'zbekistonning 1993 yil 2 sentabrdagi «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni orqali yaratib berildi. Konstitutsiyaviy sud tizimi esa ilk bora qonunchilikda nazarda tutilib, Konstitutsiyaning 108-moddasida O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat hokimiyatining aklari Konstitutsiyaga mosligini ko'rib chiqishi belgilandi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qamrovi mazmun-mohiyat jihatidan serqirraligi bilan e'tiborni o'ziga jalb etadi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishdan maqsad — sud orqali inson huquqlari va erkinliklarini yanada ishonchli himoya qilish mexanizmini zamonaviy davlatchilik talablariga moslashtirish hamda jamiyat ehtiyojlarini inobatga olgan holda sud organlari faoliyatida odil sudlov darajasini oshirishdan iboratdir. Avvalambor, Konstitutsiyamizda sud hokimiyati faoliyatiga tegishli qator me'yorlar o'zining aniq ifodasini topganini alohida qayd etish o'rinlidir. Shu bois Farmonda eng muhim vazifalardan biri sifatida aynan "sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga va odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsipiga og'ishmay amal qilinishini ta'minlash" belgilab qo'yilgani bejiz emas, albatta. Fikrimizcha, bu holat barcha sudlar, ya'ni fuqarolik, jinoyat va xo'jalik sudlari tomonidan ishlarni muhokama qilish va tegishli qarorlar — hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha bosqichlarda (birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida) biron-bir mansabdor shaxsning bevosita aralashishi mumkin emasligini anglatadi. Binobarin, Konstitutsiyamiz, "Sudlar to'g'risida"gi qonun va Jinoyat-protsessual kodeksida "sudyalarning mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar", degan prinsip o'z ifodasini topgan. Mazkur tamoyil sudyaning faoliyat ko'rsatishida mustaqilligi kafolatlanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, barcha sud tarmoqlaridagi sudyalarning o'z ish yurituvidagi ishlarni mazmunan hal etishda faqat tegishli qonunlar talablariga qat'iy rioya qilishlari, qonunlar talabidan og'ishmagan holda qaror qabul qilishi lozimligini anglatadi. Misol uchun hukumat portaliga fuqarolar tomonidan yo'llangan ariza va shikoyatlar yuzasidan tegishli vazirlik va idoralar tomonidan shoshilinch choralar ko'rilayotgani, bunda fuqarolarning huquq va manfaatining ustuvorligiga e'tibor berilayotganini keng jamoatchilik e'tirof etayotganini qayd etish joiz. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimizning "islohot islohot uchun emas, inson manfaati uchun", degan purhikmat g'oyalari izchil va tizimli davom ettirilayotgani har bir fuqaroning qalbiga quvonch bag'ishlashi barobarida, kelajakka ishonch bilan yashashga undayotganini ta'kidlash darkor. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 noyabr kuni odil sudlovni ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda keltirgan ma'lumotlari, fikr-mulohazalari konseptual-strategik ahamiyatga ega. 2016 yildan buyon sud



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mustaqilligini mustahkamlash, jinoiy ishlarni ko'rishda xolislik, adolat va qonuniylilikni ta'minlash maqsadida siyosiy huquqiy islohotning so'nggi olti yilida tizimga oid 50 dan ortiq qonun, farmon va qaror qabul qilindi. Shu davrda nohaq ayblangan to'rt ming kishiga oqlov hukmi chiqarildi, 26 mingdan ziyod shaxs sud zalidan ozod qilindi, 47 ming fuqaroga nisbatan tergovda qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarildi. Farmonda belgilangan muhim vazifalardan yana biri — nafaqat sud organlari, shu bilan birga, ushbu huquqiy-me'yoriy hujjat bilan faoliyati qamrab olingan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, davlat organlaridagi yuridik xizmatlar mas'ul xodimlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o'z vaqtida hal etish yuzasidan mas'uliyatini yanada oshirish zarurligi qayd etilgani hisoblanadi. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinganidan buyon mamlakatimizda fuqarolarning murojaatini hal etishning huquqiy mexanizmi tubdan o'zgarganidan barchamiz xabardormiz.

XULOSA

Shuni xulosa qilib aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida belgilangan vazifa-topshiriqlar asosida sud-huquq tizimini isloh etish yo'nalishidagi huquqiy yechimini topish zarur bo'lgan muhim va dolzarb masalalar bo'yicha qonunlarning qabul qilinishi xalqimizning davlatimizda amalga oshirilayotgan oqilona siyosatga ishonchini yanada oshirmoqda. Shu amaliy ishlar hokimiyat tizimida sudlar mustaqilligini yanada mustahkamlaydi va odil sudlov darajasini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirib, demokratik huquqiy davlat qurish hamda adolatli fuqarolik jamiyatini qurishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" prezident farmoni.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish choratadbirlari to'g'risidagi" farmoni
4. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar fan-darsligi. (Toshkent-2020).

